

“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARIDAGI TARBIVIIY VA AXLOQIY QARASHLARI

RUXSHONA ASHIROVA

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti talabasi

rukshonaashirova0608.gmail.com

+998947188559

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asarining qisqacha tahlili va undagi tarbiyaviy va axloqiy qarashlari haqida bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, ta'lim, tarbiya, mustaqillik, ma'naviyat, axloq, xulq, ilm.*

Tarbiya biz uchun yo hayot -yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat -yo falokat masalasidir. Abdulla Avloniy mashhur mutafakkir va maorif tarafdori edi. Abdulla Avloniyning “ Biz uchun tarbiya - yo hayot- yo mamot, yo najot - yo halokat yo saodat - yo falokatdir “ degan iborasi uning o'sha davrdagi qarashlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Agar biror narsa bir vaqtlar muhim bo'lgan bo'lsa, endi u yanada muhimroqdir. Abdulla Avloniy ma'rifatparvar bo'lishidan tashqari ustoz va murabbiy sifatida ham xizmat qiladi. Shoir o'z davrida she'rlarini “Hijron” taxallusi bilan nashr etgan. “Mulla Abdulloh” , “Avloniy”, “Abdulloh Avloniy “nomlari bilan maqolalarini chop etgan. Eng ko'p ishlatgan taxalluslaridan biri “Indamas” edi. 1909- yilda ma'rifatparvar “ Jamiyat xayriya”ni ochdi va mahalliy xalq bolalarining o'qishi uchun pul yig'ib, maktablarga tarqatgan. 1913 yilning oxirida toshkentlik mashhur jadidlar-taraqqiyparvarlarning tashabbusi bilan “ Turon” jamiyati maydonga keldi. Uning muassasalaridan, jonkuyarlaridan biri Avloniy edi. Turkistonda o'zining ijtimoiy va ma'rifiy harakatlari bilan mashhur bo'lgan Avloniy jadidlar bu harakatning yaqqol namoyon bo'lgan vakili edi. Teatr va matbuotning ta'kidlashicha, “dunyo ilmlarini o'rgatish usuli” yangi va yangicha yondashuvdir. U yerda an'anaviy maktablar ochilib, mahalliy yoshlar ta'lim oldi. Turli fanlar, jumladan, sanoat va qishloq xo'jaligining yetuk olimlari, sanoat va qishloq xo'jaligining yetuk olimlari, mohir mutaxassislar va madaniyat arboblari mamlakatni tark etishdi. 1907 yil Mirobodda uyda “Shuhrat” nomli gazeta chiqardi. Zamonaviy maktablar uchun tort qisimdan iborat “ Adabiyot va milliy she'rlar va “ Birinchi muallim” , “ Ikkinchi muallim”, “ Maktab gulistoni” va shu kabi darsliklar va o'quv kitoblarini yaratdi. Maktab va o'quv ishlarini qo'llab quvvatlovchi “ Jamiyat xayriya” kitob do'koni ochdi. Asarlari orasida “Turkiy guliston yoxud axloq ” asari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Abdulla Avloniy mazkur asarni fors klassik shoiri shayx Muslihiddin

Sa'diyning " Guliston" asaridan ta'sirlanib, unga taqlid qilib yozganligi haqida shunday deydi: " Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg'a g'ayrat va jasorat qilmish edim" deb yozadi. Aytish mumkinki, "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari Sa' diyning "Guliston" asari usulida yozilgan o'zbek tilidagi axloq kitobidir.

Abdulla Avloniy ushbu asarni 1913 yilda Toshkentda Ilin bosmaxonasida litografik yani toshbosma usulida nashr etildi. Bu asarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olingan holda 1917 yilda ikkinchi marta qayta chop etildi. Chop etilgan ikki nashrda ham deyarli bir-biridan farq qilmaydi. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining uchinchi nashri 1967 yilda "O'qituvchi" nashriyotida chop etildi. 1992 yil asli nusxa yozuvida bosib chiqarildi. Hozir kunda keng foydalanilayotgan bosma asar asarning beshinchi nashri nashr etilganlari orasida eng mukammali hisoblanadi. Bu asar kitobxonlar uchun mo'ljallangan

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Turkiy guliston yoxud axloq asari tarbiyaviy va axloqiy qarashlar haqidagi asardir. Bu asarda tarbiya va axloq g'oyalari ilgari surilgan. Shoir bu asarda har bir axloqiy tushunchani talqin qilar ekan, uni bevosita o'z davri masalalari bilan bog'laydi va kitobdagi zamon nafasini olib kirishga muvaffaq bo'ladi.